

XALQARO KASALLIKLAR TASNIFI YANGI TAHRIRIGA KO'RA NUTQ NUQSONLARINING TASHXISLANISHI

Egamberdiyeva Nigora Azizovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti "Maxsus pedagogika"

kafedrasi o'qituvchisi

nigoraazizovna1991@gmail.com

Eshqovatova Sanobar Baxtiyor qizi

CHDPU Pedagogika fakulteti

Maxsus pedogogika/logopediya yo'nalishi

I bosqich talabasi

eshqovatovvasanobar@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari va kasalliklarning yangi talqindagi tasnifiga ko'ra tashxislanishi hamda ular haqida ta'riflar keltirilgan.*

Tayanch so'zlar: *Innervatsiya, anamnez, distrofiya, dislaliya, dizartiriya, rinolaliya.*

Kasallik, betoblik, xastalik - organizmga tashqi yoki ichki muhitning zararli omillari ta'sir etganda ro'y beradigan patalogik jarayon. Kasallik paydo bo'lishida tashqi muhit omillari yetakchi rol o'ynaydi, chunki ular organizmga bevosita ta'sir etishi bilan birga uning ichki xususiyatlarini ham o'zgartira oladi. Bu o'zgarishlar nasldan naslga o'tib, unda kasallikni yuzaga keltirishi mumkin. Bolalarda ko'p uchraydigan nutq nuqsonlari juda ko'p sabablar tujayli kelib chiqishi mumkin. Homiladorlik davrida turli xil kasalliklarni boshdan kechirish turli infeksiyalar, intoksikatsiya, homila toksikozi, gipoksiya yoki kislorod yetishmasligi, qon bosimning oshishi yoki tushib ketishi, homilador ayol va homila qon guruhining mos kelmasligi sababli kelib chiqishi mumkin. Nutq nuqsonlarini tashxislashda birinchi navbatda bolaning ruhiy, aqliy va eshitish idroki tekshirib olinadi. Amaldagi ko'pgina tasniflarda maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarni nutq kamchiligining umumiy qonuniyatlari hisobga olinadi.

Nutq nuqsonlarini tasniflashda dastlabki urinishlar 1937-yilda A.Allester tomonidan boshlab berilgan.

Duduqlanish nutq kamchiligini tibbiy alomatlarga ko'ra tasniflash V.S.Kochergina va N.A.Vlasova va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, F.Desiyev, Y.Berendes ham nutq kamchiliklarini etiologik alomatlarga ko'ra tasnifladilar. Xususan, V.S.Kochergina dududlanish oqibatida o'zini tutish

muvozanati buzilgan bolalarni, shuningdek kuchli qo'zg'alishga ega bo'lgan bolalarni ajratib ko'rsatadi. Ularning anamnezida ona qornida rivojlanish borasida nohush sharoitlar, tug'ma jarohatlar, somatik kasalliklar, o'tkir va asoratli infeksiyalar, yurak-qon tomiri kasalliklari, endokrin zaiflashuvilar bo'ladi. V.S.Kochergina yana shunday bolalarni ajratib ko'rsatadiki, ularda duduqlanish nutq kamchiligining boshlanishiga qadar nevroz alomatlari, jazava hurujiga moyillik bo'ladi. Nutq nuqsonlarining bir qancha turlari mavjud.

Duduqlanish bu og'zaki nutq artukulyatsion apparat a'zolari muskullarining tortishishi sababli og'zaki nutqning tempri tek o'zgarishi o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Duduqlanish kelib chiqishiga ko'ra 2 xil bo'ladi.

1) Nevrotik duduqlanish (logonevroz) bolaning kuchli ruhiy kechinmalari, stress, depressiya, qo'rquv, haddan tashqari qattiqqo'llik, chapaqaylikdan o'ng qo'lga o'rgatish, oiladagi ikki tillik, duduqlanuvchiga taqlid qilish natijasida kelib chiqadi.

2) Nevrozsimon duduqlanish bu bosh miyaning organik jarohatlanishi, bosh miyadagi turli xil o'simtalar, dizartiriya, tayanch harakat a'zolari kasalliklari, bolalar serebral falaji natijasida kelib chiqadi. Duduqlanish o'z vaqtida bartaraf etilmasa, bolaning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bola o'z fikrini mustaqil eta olmasligi natijasida tengdoshlari bilan muloqatga kirisha olmaydi.

Dislaliya - tovush talaffuz qilishning normal eshitish va nutq apparatining saqlangan innervatsiyasi paytida buzilishiga aytiladi. Nutqning noto'g'ri tovushli turlanishida, tovushlarni buzib talaffuz qilishda, tovushlarning almashinuvida yoki ularning yo'qligida namoyon bo'ladi. Buzilishlar odatda bola nutqining rivojlanish jarayonida har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin.

Rinolaliya – nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir. Rinolaliyada tovushlar artukulatsiyasi, fonatsiyasi, tovush xosil bo'lish mexanizmlari jiddiy ravishda normadan chetga chiqadi. Normal fonatsiya bo'lganda, kishida burun tovushlaridan tashqari nutqdagi hamma tovushlarni talaffuz qilish vaqtida burun -halqum va burun bo'shlig'ining bo'g'iz va og'iz bo'shlig'idan ajralish ro'y beradi. Tovush tembrining patologik o'zgarishida namoyon bo'ladi. Bu holat chiqarilayotgan nafas oqimining barcha nutq so'zlarini talaffuz qilish paytida burun bo'shlig'iga o'tishi va unda aks sado berishi oqibatidir.

Dizartiriya - nutq talafufuzi tomonining nutq apparati innervatsiyasidagi yetishmovchilik bilan bog'liq holdagi buzilishdir. Dizartiriya nutq a'zolarining kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz nafas buzilishlari hamda nutqning sur'ati, ritmi va ifodaliligida o'zgarishlar kuzatiladi. Dizartiriyaning og'ir formasida nutq butunlay tushunarsiz bo'ladi.

Alaliya bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida yuzaga keladigan og'ir nutq nuqsoni bo'lib, bu tashxis eshitish va ong meyorda bo'lgan shaxslarga qo'yiladi. Bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'idagi nutq zonalarining chala rivojlanishi yoki zararlanishi sababli bolalarning tilga kirmasligi yoki me'yorda so'zlay olmasligidir. Bola boshining ona qornidaligida yoki tug'ilish chog'ida jarohatlanishi, shuningdek ilk bolalik davrida og'ir kasalliklar bilan og'rishi alaliyaga sabab bo'ladi. Alaliyada bola nutqi uzoq vaqt rivojlanmaydi. 5-7 yoshgacha, bazan 10-12 yoshgacha bolaning tili chiqmaydi. Alaliyaning sensor va motor xillari mavjud. Sensor alaliya kamdan-kam, motor alaliya xiyla ko'proq uchraydi. Motor alaliyada bola kam va noto'g'ri gapiradi, unga qaratilgan nutqni tushunadi. Ayrim tovushlarni talaffuz qilgani bilan tovush birikmalarini o'zlashtira olmaydi, butun so'z o'rniga uning bir qismini aytadi.

Afaziya bu bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida shakllangan nutqning yo'qolishi. Bolalar afaziyasi asosan asosan tajribada kam uchraydi. Afaziya asosan insutldan keyin uchraydi. Bolalarda esa miya infeksiyalari, miya rivojlanishi davrida turli xil kuchli travmalar natijasida yuzaga keladi. Afaziya nutqning to'liq yoki qisman yo'qolishi, u odatda bosh miyaning lokal jarohatlanishi natijasida yuzaga keladi. Afaziyani keltirib chiqaruvchi sabablarga quyidagilarni kiritish mumkin; miyada qon aylanishining buzilishi (ishemik, gemoragik), bosh miya jarohatlari, o'smalar hamda bosh miyaning infeksiyon kasalliklari, qon tomir tizimadagi buzilishlari, kasalliklari sababli afaziya ko'proq kattalarda yuz beradi. Qon tomir tizimidagi bosh miya qon tomirlarining yorilishi natijasida yuz beruvchi anevrizm, tromboemboliya, revmatizm natijasida paydo bo'ladigan yurak paroglari, miya qobiq jarohatlari o'smir va yoshlarda kam kuzatiladi. Bolalarda nutq kamchiligining oldini olish uchun biz avvalo e'tiborni o'zimizdan boshlashimiz zarur deb hisoblayman. Sog'ligimizga e'tiborli bo'lishimiz, biz uchun zararli bo'lgan ichimlik va yeguliklardan voz kechishimiz zarur bo'ladi. Misol uchun homiladorlik davrida nihoyatda e'tiborli bo'lishimiz, sog'lom turmush tarziga rioya qilishimiz, iste'mol qilayotgan yeguliklarimizga nihoyatda e'tiborli bo'lishimiz zarur deb hisoblaymiz. Zero sog'lom onadan sog'lom farzand dunyoga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Ayupova "Logopediya". O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI TOSHKENT-2007
2. S.D.Achilova "Duduqlanish".
3. Ахутина Т. В. Порождение речи. Нейролингвистический анализ синтаксиса / Т. В. Ахутина. — 5-е изд., стереотип. — Москва: URSS, 2022. — 218 с. — ISBN 978-5-9710-9594-1.
4. Диагностика нарушений речи у детей и организация логопедической работы в условиях дошкольного образовательного учреждения: сборник

методических рекомендаций / сост. В. П. Балобанова и др. — Санкт-Петербург: Детство-пресс, 2002. — 238, [1] с. — ISBN 5-89814-087-5.

5. N.A.Egamberdiyeva “RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA AUTIZM SINDROMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISH”. “RAQAMLI TA’LIMNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI VA ULARNI TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA TADBIQ QILISH YO‘LLARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI. 1-TOM. 2023-yil. 278-282-betlar